



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 23-may

№ 2016

Sudyalar daxlsizligi buzilgan holatlarda Sudyalar oliy kengashiga murojaat qilish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida

“Sudyalar oliy kengashi” to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 7, 17-moddalarini qo‘llab, Kengash

Q A R O R Q I L A D I :

1. Sudyalar daxlsizligi buzilgan holatlarda Sudyalar oliy kengashiga murojaat qilish tartibi to‘g‘risida Nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashining 2023 yil 10 martdagi 1779-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.
3. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



X.Yodgorov

Sudyalar daxlsizligi buzilgan holatlarda
Sudyalar oliy kengashiga murojaat qilish tartibi to‘g‘risida
NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 136-moddasi va O‘zbekiston Respublikasining “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonuni 64-moddasida belgilangan sudyaning shaxsiy daxlsizlik va xavfsizlik, jinoiy va ma‘muriy javobgarlikka tortish, qamoqqa olish, huquqni muhofaza qiluvchi organlarga guvoh yoki gumon qilinuvchi sifatida chaqirish, ushlab turish kabi harakatlarni amalga oshirishning tartibi buzilgan holatlarda Sudyalar oliy kengashiga (bundan buyon matnda Kengash deb yuritiladi) murojaat qilish tartibini belgilaydi.

2. Nizomning asosiy maqsadi sudyaning daxlsizligi buzilgan holatda, daxlsizligini, huquqlari, xavfsizligini va huquqlari qonuniy tartibda himoya qilinishi uchun zarur choralarni ko‘rishni ta‘minlashga qaratilgan.

3. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

sudyalar daxlsizligi – bu sudyalarning odil sudlovni amalga oshirishlarida mustaqilligi va beg‘arazligini ta‘minlovchi, ularni tashqi ta‘sirdan, bosimdan, asossiz jinoiy ta‘qibdan himoya qilishning kafolati;

(O‘zbekiston Respublikasi “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonunining 64-moddasida belgilangan sudyalar mustaqilligining kafolatlari);

murojaat qiluvchi – murojaat qilingan vaqtda qonunga muvofiq odil sudlovni amalga oshirishga vakolat berilgan shaxs (sudya yoki xalq maslahatchisi) yoki ularning vakili;

murojaat – sudyaning daxlsizligi buzilganligi holatlari bayon etilgan yozma hujjat, elektron xabar.

onlayn platforma – Internet tarmog‘idagi <https://sudyalaroliykengashi.uz> manzilida joylashgan Kengashning rasmiy veb-sayti;

operator – Kengashning Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va axborot xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha inspektori.

sudya daxlsizligi buzilgan holatlar - sudyaga nisbatan tahdid holatlari, sudyaning shaxsiy hayotiga, mulkiga yoki oila a‘zolariga nisbatan tajovuzlar, shaxsiy daxlsizlik va xavfsizlik, sudyani jinoiy va ma‘muriy javobgarlikka tortish, qamoqqa olish, huquqni muhofaza qiluvchi organlarga guvoh yoki gumon qilinuvchi sifatida chaqirish, ushlab turish kabi harakatlarni amalga oshirishning tartibi buzilishi. Bunda, hech kim o‘ziga va yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emasligiga oid konstitutsiyaviy prinsipga rioya qilinishi kerak.

2-bob. Murojaat qilish tartibi

4. Sudya yoki xalq maslahatchisi daxlsizligi buzilgan holat yuz berganda, u shaxsan yoki vakolatli vakili orqali Kengashiga murojaat qilish huquqiga ega.

Murojaat elektron shaklda yoki qog‘oz ko‘rinishida yuborilishi mumkin.

Elektron murojaat rasmiy elektron pochta orqali yuborilishi lozim. Murojaat qiluvchi o‘zining daxlsizligi buzilgan holatlar bayon etilgan hamda tegishli chora ko‘rish so‘ralgan yozma arizasini onlayn platformaga yuklashi hamda o‘zining shaxsiga oid ma‘lumotlarni kiritish orqali murojaat qilishga haqli.

5. Murojaatda quyidagilar ko‘rsatilishi lozim:

- sudya yoki xalq maslahatchisining shaxsiga oid ma‘lumotlari (FISh, ish joyi, mansabi);
- daxlsizlikning buzilishi bilan bog‘liq holatning qisqacha mazmuni;
- hodisaning sanasi, vaqti va joyi;
- guvohlar yoki dalillar (agar mavjud bo‘lsa);
- sudya yoki xalq maslahatchisining huquqiy talablari;
- bog‘lanish uchun telefon raqami.

3-bob. Murojaatni ko‘rib chiqish tartibi

6. Yozma murojaat devonxona mudiri tomonidan qabul qilinadi.

Onlayn platforma orqali kelib tushgan murojaatni moderator qabul qilib oladi hamda Kengashning devonxona mudiriga elektron shaklda darhol yuboradi.

7. Kengashning devonxona mudiri murojaatni darhol ro‘yxatdan o‘tkazib Kengash raisiga kiritadi.

8. Kengash raisi murojaatni ko‘rib chiqish uchun Sudyalar daxlsizligini ta‘minlash va korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha sud inspeksiyasi (bundan buyon matnda Sud inspeksiyasi deb yuritiladi) rahbariga o‘tkazadi.

9. Sud inspeksiyasi murojaatni to‘liq tekshirish va har tomonlama o‘rganish uchun mas‘ul bo‘ladi. Sud inspeksiyasi murojaatni olganidan so‘ng uning mazmunini tekshirib, zarur bo‘lgan ma‘lumotlarni yig‘ish uchun zarur choralarni amalga oshiradi.

10. Sud inspeksiyasi murojaatni 10 kunlik muddatda o‘rganib chiqadi. Murojaatni ko‘rib chiqish uchun tekshirish o‘tkazish, qo‘shimcha materiallarni so‘rab olish yoxud boshqa chora-tadbirlar ko‘rish zarur bo‘lgan hollarda, uni ko‘rib chiqish muddati tegishli Kengash raisi tomonidan istisno tariqasida uzog‘i bilan bir oyga uzaytirilishi mumkin, bu haqda murojaat etuvchiga xabar qilinadi.

11. Murojaatni o‘rganish natijalari bo‘yicha Sud inspeksiyasi tomonidan xulosa rasmiylashtiradi.

12. O‘rganish natijasida sudyaning yoki xalq maslahatchisining daxlsizligi buzilganligini tasdiqlovchi ma‘lumotlar aniqlanganda holat yuzasidan qonuniy chora ko‘rishlik uchun O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasiga taqdimnoma kiritiladi.

Agar Sud inspeksiyasi tekshirish natijasida daxlsizlik buzilishiga asoslar mavjud emas deb hisoblasa holat to'g'risidagi murojaat qanoatlantirilmaydi va shu haqda murojaat etuvchiga yozma javob berish lozim.

4-bob. Yakuniy qoidalar

13. Ushbu Nizom talablarining ijrosini ta'minlash va uning amalga oshirilishini nazorat qilish vazifasi Sud inspeksiyasiga yuklatiladi.

Sud inspeksiyasi Nizom talablarining to'liq va aniq bajarilishini, shuningdek, murojaatlarni ko'rib chiqish tartibiga rioya etilishini tizimli ravishda nazorat qiladi.

Sud inspeksiyasi:

- murojaatlarning qabul qilinishi, ro'yxatga olinishi, tekshirilishi va hal qilinishida "Sudlar to'g'risida"gi va Nizom talablariga rioya qilinishini tekshiradi;
- murojaatni ko'rib chiqish jarayonini nazorat qiladi;
- sudyalar va xalq maslahatchilari daxlsizligi buzilgan holatlar bo'yicha hisobot tayyorlaydi.

14. Ushbu Nizom talablarini buzgan shaxslar tegishli tartibda intizomiy javobgarlikka tortiladi.